



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

20 25 yil " 28 " iyul _____

№ 234

Toshkent sh.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari hamda viloyat darajasidagi davlat tibbiyot va davolash-profilaktika muassasalari ma'muriy boshqaruv, shifokorlik hamda o'rta tibbiyot xodimlarining mavjud vakant lavozimlariga tanlov o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida

Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi tashkilotlarga ishga kirishda barcha nomzodlarga teng imkoniyatlar yaratish hamda professional kadrlarni saralab olishning shaffof, xolis mexanizmi joriy etish, hududiy sog'liqni saqlash tizimi tashkilotlarining malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish va bu borada yagona raqamlashtirilgan tizimni joriy qilish maqsadida **buyuraman:**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari tizimidagi davlat tibbiyot va davolash-profilaktika muassasalarida (keyingi o'rinlarda—muassasalar) yuqori malakaga ega bo'lgan kadrlarni jalb qilish, ishga qabul qilish jarayonida xalqaro standartlarga muvofiq maxsus elektron dastur orqali talabgor nomzodlarning barchasiga teng imkoniyat yaratgan holda saralab olishning yangi mexanizmini sinov tariqasida joriy etib, uni amaliyotga tatbiq etsin.

2. Quyidagilar:

Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari hamda viloyat darajasidagi davlat tibbiyot va davolash-profilaktika muassasalari ma'muriy boshqaruv, shifokorlik hamda o'rta tibbiyot xodimlarining mavjud vakant lavozimlariga tanlov o'tkazish to'g'risida nizom **1-ilovaga muvofiq;**

Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari hamda viloyat darajasidagi davlat tibbiyot va davolash-profilaktika muassasalari ma'muriy boshqaruv, shifokorlik hamda o'rta tibbiyot xodimlarining mavjud vakant lavozimlariga tanlov o'tkazish tartibi Sxemasi **2-ilovaga muvofiq;**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog‘liqni saqlash boshqarmalarining bekor qilinadigan buyruqlar ro‘yxati **3-ilovaga muvofiq** tasdiqlansin.

3. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga ko‘ra muassasalardagi mavjud bo‘lgan bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, nomzodlarga qo‘yiladigan talablar bir vaqtning o‘zida quyidagi platformalar bilan interaktiv xizmatlar shaklida:

davlat fuqarolik xizmati vakant lavozimlarining ochiq portalida (vacancy.argos.uz);

elektron platformasi (“hrm.argos.uz”);

yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (my.gov.uz) orqali muassasalarga ishga kirish uchun ariza yuborish xizmati joriy etiladi.

Bunda muassasalardagi mavjud bo‘lgan ma‘muriy boshqaruv, shifokorlar va o‘rta tibbiyot xodimlari uchun nomzodlar tanlov yo‘li bilan ishga qabul qilinadi.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog‘liqni saqlash boshqarmalari rahbarlariga:

15 kun muddatda tegishli tashkilot va idoralar bilan birgalikda muassasalarda mavjud bo‘lgan bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, nomzodlarga qo‘yiladigan malaka talablarini “hrm.argos.uz” elektron platformasi hamda davlat fuqarolik xizmati vakant lavozimlarining ochiq portalida (vacancy.argos.uz) aks ettirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirsin;

tibbiyot muassasalardagi vakant lavozimlar haqidagi ma‘lumotlarni boshqarmaning rasmiy saytida e‘lon qilish, test sinovlari hamda suhbat bosqichi natijalarini boqsharmaning rasmiy sayti va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritilishini ta‘minlasinlar.

vazirlik tomonidan shifokor va o‘rta tibbiyot xodimlari lavozimlari uchun tegishli mutaxassisliklar bo‘yicha test va suhbat savollar bazasi ishlab chiqilgunga qadar, mavjud bazadan foydalangan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi bilan hamkorlikda test.argos.uz platformasida test jarayonlarini o‘tkazish choralari ko‘rsin.

5. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (O.Sultonov) Fan-ta‘lim va innovatsiyalar boshqarmasi (U.Ismailov) bilan hamkorlikda **30 kun muddatda** tibbiy faoliyat amalga oshiriladigan tibbiy ixtisosliklar turlari bo‘yicha muassasalarga birinchi marotaba ishga kirayotgan nomzodlar hamda ishlab kelayotgan shifokorlar va o‘rta tibbiyot xodimlari lavozimlariga tanlov o‘tkazish uchun test va suhbat savollar bazasini ishlab chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi bilan hamkorlikda test.argos.uz platformasiga joylashtirilishini hamda boshqarmaning rasmiy saytida suhbat savollarini e‘lon qilinishini;

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Sog‘liqni saqlash boshqarmasi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish shu‘basi Nazorat inspeksiyasi viloyatlar sho‘basi bilan hamkorlikda

muassasalarda vakant lavozimlarga ishga qabul qilish va boshqa lavozimga o'tkazish bo'yicha tashkil etilgan tanlov komissiyalarining ishini muvofiqlashtirib borishi belgilansin.

Bunda, vazirlikning Nazorat inspeksiyasi o'zining rejali va rejadan tashqari o'rganishlari savolnomasiga tanlov komissiyalarining ishini o'rganish bilan bog'liq qonunchilik normalari savolnomasini kiritgan holda, o'rganish yakuni bilan aniqlangan qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish yuzasidan sog'liqni saqlash hududiy boshqarmalariga taqdimnomalar kiritadi.

7. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Vazir



A.Xudayarov

**Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar
va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari, tuman (shahar)
tibbiyot birlashmalari hamda viloyat darajasidagi davlat tibbiyot va
davolash-profilaktika muassasalari ma'muriy boshqaruv, shifokorlik
hamda o'rta tibbiyot xodimlarining mavjud vakant lavozimlariga tanlov
o'tkazish to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari, hududiy davlat tibbiyot va davolash-profilaktika muassasalari (keyingi o'rinlarda – muassasalar) ma'muriy boshqaruv, shifokorlik hamda o'rta tibbiyot lavozimlarga (vakant) ishga qabul qilish, xodimlarni yuqori lavozimga o'tkazish jarayonida shaffoflikni ta'minlash, ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq maxsus elektron dastur asosida talabgor fuqarolar va tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlarning barchasiga teng imkoniyatlardan foydalangan holda saralab olish tartibini belgilaydi.

Mazkur Nizom talablari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarni amalga oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 19-maydagi PQ-185-son Qarori bilan davlat boshqaruv organi deb e'tirof etilgan 15 ta tuman (shahar) sog'liqni saqlash bo'limlariga tatbiq etilmaydi.

2. Ushbu Nizom qoidalari quyidagi holatlarda nomzodlar va xodimlarni lavozimlarga ishga qabul qilishda, boshqa lavozimga o'tkazishda tatbiq etilmaydi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-sentabrdagi "Tibbiyot kadrlarini tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 769-sonli qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomga asosan majburiy ishlab berish uchun yuborilgan bitiruvchilar;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-sentabrdagi "Birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalarida faoliyat yuritayotgan shifokorlar oylik ish haqiga qo'shimcha har oylik ustama to'lanadigan olis

va chekka hududlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 510-sonli qaroriga ilova bilan tasdiqlangan Birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalarida faoliyat yuritayotgan shifokorlar oylik ish haqiga qo'shimcha har oylik ustama to'lanadigan olis va chekka hududlar ro'yxatiga kiritilgan hududlarda joylashgan tibbiyot muassasalaridagi mavjud vakant lavozimlarga ishga qabul qilinadigan nomzodlar;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar bilan ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 26-martdagi PF-61-son Farmonining 6-bandda ko'rsatib o'tilgan stipendiatlar;

kichik tibbiyot xodimlari, texnik va xizmat ko'rsatuvchi toifadagi lavozimlar;

asosiy shtat birligi bo'yicha 0,25, 0,5 va 0,75 stavkada ishlab kelayotgan xodimlarga mavjud vakant shtat birliklarini qo'shib berish orqali 1,0 stavka shtat birligini joriy etishdagi holatlar.

Milliy kadrlar zaxirasi shakllantiriladigan yoki «1-darajali xizmatchi» va undan yuqori malaka darajasi belgilangan lavozimlarda faoliyat ko'rsatgan (oxirgi ish joyi bo'lgan) davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan Boshqaruv samaradorligi agentligining yo'llanmasi asosida egallanadigan lavozimlar;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo'yicha «El-yurt umidi» jamg'armasining bakalavriat, magistratura va doktorantura dasturlari bo'yicha ta'lim olgan stipendiatlar uchun belgilangan tartibda taqsimlangan yoki qayta taqsimlangan lavozimlar;

Salohiyatli kadrlar zaxirasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi tomonidan taqsimlangan lavozimlar;

Davlat organidagi nogironligi bo'lgan shaxslar uchun kvotalangan lavozimlar;

Rotatsiya tartibida egallanadigan teng lavozimlar;

Qonunchilikka muvofiq oldingi lavozimni yoki unga teng bo'lgan lavozimni taqdim etish kafolatlangan hamda sud qarori bilan ishga (lavozimga) tiklangan shaxslar tomonidan egallanadigan lavozimlar;

xodimlarni boshqa lavozimga o'tkazish (yuqori lavozimga o'tkazish bundan mastasno)

2¹. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qashqadaryo viloyatida aholi salomatligini muhofaza qilish hamda sog'liqni saqlash tizimini yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 9-fevraldagi PQ-67-son Qarorida belgilangan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi sifatini oshirish, tibbiyot xodimlariga bo'lgan ehtiyojni qondirish, jumladan, olis va chekka hududlardagi vakant o'rinlarni malakali kadrlar bilan butlash maqsadida ushbu hududlarda shifokorlar tanlovsiz ishga qabul qilinadilar.

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

vakant lavozim – muassasaning shtatlar jadvalidagi (jumladan tarifikatsiya) lavozimlar ichidan nomzodlar tomonidan egallanmagan lavozim;

nomzod – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligining “Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona portali”da (vacancy.argos.uz) (keyingi o‘rinlarda – Portal) vakant lavozimni egallash bo‘yicha nomzod sifatida mazkur Nizomda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi.

Chet el mutaxassislari va ekspertlari muassasalarning vakant lavozimlarini qonunchilikda belgilangan tartibda egallashi mumkin. Chet el mutaxassislari va ekspertlarining ishga qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

malaka talablari – muassasaning shtatlar jadvalidagi (jumladan tarifikatsiya) muayyan lavozimini egallash uchun talabgor bo‘layotgan nomzodlarga nisbatan muassasa tomonidan mazkur Nizomning 2-ilovasidagi namunaviy shaklda belgilanadigan, ish tajribasiga va kasbiy kompetensiyasiga doir talablar.

4. Tanlov meritokratiya, ochiqlik, muqobillik va tenglik tamoyillari asosida o‘tkaziladi.

2-bob. Tanlov turlari

5. Vakant lavozimlarini egallash Portal orqali o‘tkaziladigan ichki va tashqi tanlovlar asosida amalga oshiriladi.

Ichki tanlovlarda faqat muassasalarda faoliyat yuritib kelayotgan barcha xodimlar, tashqi tanlovlarda esa tegishli malaka talabiga javob beradigan barcha nomzodlar ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi.

Muassasada bir vakant lavozim bo‘yicha bir (1) stavkadan kam bo‘lmagan bo‘sh ish o‘rni mavjud bo‘lgan hollarda tanlov e‘lon qilinadi. Muassasaning tasdiqlangan shtatlar jadvalidagi asosiy lavozim bo‘yicha mavjud 0,25, 0,5 va 0,75 shtat birliklari bundan mustasno.

Bunda, muassasada tibbiyot xodimlarini ishga qabul qilish noto‘liq ish stavkasida mehnat qilayotgan xodimlarni to‘liq stavka ish o‘rni bilan ta‘minlagandan keyingina asosiy ish o‘rniga bir (1) stavkadan kam bo‘lmagan bo‘sh ish o‘rni mavjud bo‘lgan hollarda tanlov e‘lon qilinadi. Bo‘limda noto‘liq stavkada ishlayotgan xodimlar mavjud bo‘lsa tanlov o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Mazkur tartib xodim asosiy ishini bajarishdan tashqari vaqtda o‘rindoshlik asosida ishlashi, shuningdek mavjud shtat birligi va boshqa ob‘ektiv sabablar nomzodni to‘liq stavkaga ishga qabul qilishga imkon bermaydigan holatlar bundan mustasno.

Mutaxassis xodimlar va tibbiyot xodimlarini boshqa ishga o‘tkazish

(shu jumladan, vaqtincha boshqa ishga o'tkazish) xodimlarning mos mutaxassisliklar bo'yicha o'zaro ish o'rnini almashtirish (rotatsiya), vakant ish o'rinlarini tibbiyot muassasasida noto'liq ish stavkasida faoliyat yuritayotgan xodimlar o'rtasida ularni to'liq ish stavkasiga to'ldirish maqsadida taqsimlash, o'rta-maxsus tibbiyot xodimlarini egallagan lavozimi bilan bir xil bo'lgan boshqa lavozimga o'tkazish, shifokorlarga mutaxassisligi bo'yicha asosiy ishidan tashqari ichki o'rindoshlik asosida mehnat shartnomasi tuzish test sinovlari o'tkazilmasdan **ichki tanlov - suhbat** asosida o'tkaziladi.

Ichki tanlovlar tashkilot komissiyasi tomonidan nomzodlar bilan suhbat o'tkazish shaklida o'tkaziladi va komissiya bayoni bilan rasmiylashtiriladi.

Muassasaning ma'muriy boshqaruv, shifokorlik va o'rta tibbiyot xodimi vazifalariga muayyan yoki nomuayyan muddatga mehnat shartnomalari tuzib, ishga qabul qilinadigan barcha holatlar vakant lavozimlarning ochiq portali orqali **tashqi tanlov** asosida o'tkaziladi.

6. Tanlovlar vakant lavozim vujudga kelgan kundan boshlab o'n ish kuni ichida e'lon qilinadi.

3-bob. Tanlovni tashkil qilish

7. Portaldagi vakant lavozimlar to'g'risidagi ma'lumotlar avtomatik "**hrm.argos.uz**" elektron platformasidagi ma'lumotlar asosida shakllanadi.

Vakant lavozimlar to'g'risidagi ma'lumotlar Portalga joylashtirilgan sana mazkur lavozimni egallash bo'yicha tanlov e'lon qilingan kun deb hisoblanadi.

8. Tanlov quyidagi bosqichlar asosida tashkil etiladi:

birinchi bosqich – tanlov o'tkazilishi to'g'risida e'lon berish;

ikkinchi bosqich – nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish va ularni mutaxassislik va malaka talabi asosida saralash;

uchinchi bosqich – nomzodlarning bilimini test sinovidan o'tkazish;

to'rtinchi bosqich – nomzodlar bilan suhbat o'tkazish va yakunda g'olibni aniqlash.

Muassasa ma'muriyatining vakant lavozimlariga malaka talabi mos kelgan ikki (2) nafargacha, shifokor lavozimlari tanloviga besh (5) nafargacha nomzodlar hujjat topshirgan hollarda test sinovlari o'tkazilmasdan, to'g'ridan-to'g'ri suhbat o'tkazishga ruxsat beriladi.

Lavozimlar uchun malaka talablari ish beruvchi tashkilot tomonidan ishlab chiqiladi va belgilangan tartibda buyruq bilan tasdiqlanadi.

9. Tanlov o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon Portalda, tegishli muassasaning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarida joylashtiriladi.

Mazkur e'lon davriy nashrlarda ham joylashtirilishi mumkin.

Tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'londa quyidagilar ko'rsatiladi:

vakant lavozim nomi va unga qo'yiladigan malaka talablari;

lavozim majburiyatlari;

shtat jadvaliga muvofiq lavozim maoshi;

mehnat sharoitlariga oid ma'lumotlar.

Lavozimlarning ayrim toifalari uchun qo'shimcha talablar mavjud bo'lgan taqdirda, e'loni bu haqda ma'lumot kiritiladi.

10. Tanlovda ishtirok etish bo'yicha nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish muddati tanlov e'lon qilingan kundan boshlab besh kalendar kunni tashkil qiladi.

Tanlovda ishtirok etish bo'yicha hujjatlar kelib tushmagan taqdirda, ushbu lavozim bo'yicha qayta tanlov avtomatik tarzda e'lon qilinib, hujjatlarni qabul qilish muddati besh kalendar kunga uzaytiriladi.

Tanlovning barcha bosqichlari tanlovda ishtirok etish bo'yicha hujjatlarni qabul qilish muddati tugagan kundan boshlab o'n ish kuni mobaynida o'tkazilishi lozim.

11. Tanlovda ishtirok etish bo'yicha hujjatlar faqat Portal orqali elektron tarzda qabul qilinadi. Nomzodlardan hujjatlar va ularning nusxalarini qog'oz shaklida talab qilish hamda yuborish man etiladi.

12. Nomzodga bir vaqtning o'zida bitta muassasaning uchtdan ortiq bo'lmagan vakant lavozimini egallash uchun tanlovda ishtirok etish huquqi beriladi hamda tanlovdan muvaffaqiyatli o'tgan taqdirda bitta lavozimni egallaydi.

13. Nomzodlar tomonidan tanlovda ishtirok etish bo'yicha tanlov natijasiga ta'sir qiladigan yolg'on ma'lumotlar shu jumladan, sun'iy intellektdan foydalangan holda noto'g'ri ma'lumotlar (hujjatda yo'l qo'yilgan texnik xatolik yoki boshqa kamchiliklar bundan mustasno) taqdim etilganligi aniqlanishi ularni tanlovdan chetlatish yoki tanlov natijalarini bekor qilish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

14. Tanlovda vakant lavozimga qo'yilgan malaka talablariga to'g'ri keladigan barcha shaxslar, (chet el fuqarolari qonunchilikda belgilangan tartibda ishga qabul qilinadi) ishtirok etishi mumkin.

15. Tanlovlarni o'tkazish uchun muassasada besh yoki yetti nafar a'zodan iborat Tanlovlarni tashkillashtirish va o'tkazish komissiyasi (keyingi o'rinlarda – Tanlov komissiyasi) tuziladi.

Tanlov komissiyasining tarkibi muassasa rahbari tomonidan mazkur Nizomning ilovasida ko'rsatilgan namunaviy tarkib asosida shakllantiriladi.

Muassasa rahbari Tanlov komissiyasining raisi hisoblanadi.

Tanlov komissiyasi tarkibiga qoida tariqasida:

Muassasa rahbarining o'rinbosarlari (yo'nalish bo'yicha kiritiladi);

Muassasaning vakant lavozimiga tanlov e'lon qilingan tarkibiy bo'linmalari rahbarlari;

muassasaning kadrlar bilan ishlashga mas'ul bo'lgan bo'linma rahbari (mutaxassis);

muassasaning yuridik xizmati rahbari.

Nazorat inspeksiyasi va Korrupsiyaga qarshi kurash bo'limi rahbari

(xodimi) shtat birligi mavjud bo'lgan muassasalarda majburiy tartibda tanlov komissiyasi tarkibiga kiritiladi.

Qonunchilik hujjatlarida lavozimga tayinlashda nomzodni tegishli vazirlik yoki idora bilan kelishish belgilangan bo'lsa, tanlovning suhbat bosqichida mazkur vazirlik yoki idoraning mas'ul vakili ham Tanlov komissiya tarkibiga kiritilishi mumkin.

Tanlov komissiyasi tarkibiga muassasa vakant lavozimining xususiyatidan kelib chiqib, boshqa mutaxassislar ham kiritilishiga ruxsat beriladi.

Tanlov o'tkazilishi davomida tanlov qoidalarini buzgan hamda qaror qabul qilishda xolislikni ta'minlay olmagan Tanlov komissiyasi a'zosi komissiya a'zolarining qarori bilan komissiya tarkibidan chiqarib yuborilishi mumkin.

16. Tanlov komissiyasi o'z faoliyatini kollegiallik, oshkoralik, xolislik, adolatlilik, qonuniylik va betaraflik tamoyillari asosida amalga oshiradi.

17. Muassasaning Inson resurslariga mas'ul bo'lgan xodimi (tarkibiy bo'linma rahbari) tanlov komissiyasining ishchi organi (keyingi o'rinlarda – ishchi organ) hisoblanadi.

Komissiya faoliyatining qonuniylik va adolatlilik prinsiplariga qat'iy rioya etgan holda korrupsiyaviy omillardan holi tashkil etilishiga Komissiya raislari – ish beruvchilar javobgar va mas'ul hisoblanadi.

4-bob. Tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlarni saralash

18. Tanlov unda ishtirok etish uchun bir (1) nafar nomzodning hujjati kelib tushgan taqdirda ham o'tkaziladi.

19. Tanlov komissiyasi hujjatlar qabul qilish muddati tugagan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida nomzodlarning vakant lavozim uchun belgilangan malaka talablariga mosligini o'rganib chiqadi va ushbu muddat ichida ishchi organ tomonidan o'rganish natijasi bo'yicha nomzodlarning Portaldagi shaxsiy kabinetlariga xabar yuboradi.

Nomzod malaka talablariga mos emas deb topilgan taqdirda, Portaldagi shaxsiy kabinetga yuboriladigan xabarda uning asoslari ko'rsatiladi.

Ishchi organ tanlov bosqichlari o'tkazilishi bo'yicha ma'lumotlarni nomzodlarning Portaldagi shaxsiy kabinetlariga tanlov bosqichlari o'tkazilishi boshlanishidan kamida yigirma to'rt soat oldin yuborilishini ta'minlaydi.

20. Tanlov o'tkazishda oshkoralik va xolislikni ta'minlash maqsadida uchinchi va to'rtinchi bosqichlar videoyozuv orqali yozib olinadi hamda muassasa tomonidan olti oy davomida saqlanadi.

21. Nomzodlar tanlov bosqichlari natijalari va o'tkazilishi bo'yicha ma'lumotlarni Portaldagi shaxsiy kabineti orqali kuzatib boradi.

Tanlov bosqichlari o'tkazilishi to'g'risida ishchi organ tomonidan o'rnatilgan tartibda Portaldagi shaxsiy kabinet orqali xabardor qilingan, lekin unda ishtirok etmagan nomzodlar tanlovdan chetlashtiriladi.

5-bob. Test sinovlarini o'tkazish

22. Test sinovlari nomzodlarning bilim va malakasini baholash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik)ning tibbiyot xodimlari uchun mo'ljallangan (shifokor va o'rta tibbiyot xodimlari uchun alohida) Davlat xizmatining yagona elektron-axborot tahlil tizimidagi “Davlat xizmatchilarini sinovdan o'tkazish moduli” – maxsus test tizimi orqali o'tkaziladi.

23. Test sinovlari davlat tilida o'tkaziladi.

Nomzodlarning talabi bo'yicha ular so'zlashadigan va tushunadigan tilda ham o'tkazilishi mumkin.

24. Test sinovlari Agentlik tomonidan muassasa bilan kelishilgan tartibda maxsus jihozlangan xonalarda o'tkaziladi.

Nomzodlar test sinovlarida ishtirok etish uchun shaxsni tasdiqlovchi hujjat bilan kelishlari shart.

Test xonalariga nomzod va Agentlik mas'ul xodimidan tashqari boshqa shaxslarning kirishi taqiqlanadi.

25. Test sinovlarini o'tkazish jarayonida nomzodlarga quyidagilar taqiqlanadi:

aloqa va telekommunikatsiya vositalari (telefon, kompyuter, planshet, video va audio yozish moslamalari va boshqalar), kitob hamda test savollari uchun javoblar kiritilgan qo'llanmalardan foydalanish;

boshqa nomzodlar bilan suhbatlashish;

test sinovlari tugamasdan xonadan tashqariga chiqish.

Mazkur talablarni buzgan nomzod ishchi organ tomonidan dalolatnoma tuzilgan holda tanlovdan chetlashtiriladi.

26. Test savollari vazirlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

27. Har bir nomzod uchun 40 dona test savollarini yechish uchun 1 soat vaqt beriladi.

28. Nomzod tomonidan test sinovlari natijasida kamida 56 ball to'planishi, uning tanlovning keyingi bosqichiga o'tishi uchun asos bo'ladi.

Nomzod test sinovlaridan 56 va undan yuqori ball to'plagan taqdirda ushbu natija 90 kun davomida amalda bo'ladi.

29. Test sinovlari natijalari avtomatik ravishda nomzodning Portaldagi shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

30. Test sinovlarini ijobiy topshira olmagan nomzodlar ushbu Nizomda belgilangan tartibda e'lon qilingan yangi tanlovda qatnashishi mumkin.

6-bob. Suhbat o'tkazish

31. Suhbat nomzodning intellektual salohiyati, ma'naviy fazilatlarini hamda kasbiy mahoratini baholash maqsadida o'tkaziladi.

Suhbat intervyu yoki taqdimot (keys-stadi, topshiriq) kabi usullar asosida amalga oshiriladi.

32. Suhbat Tanlov komissiyasi tomonidan o'tkaziladi. Suhbatda Tanlov komissiyasi a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki (3/2) qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

Agar tanlov komissiyasi a'zosi suhbatdan o'tayotgan shaxsning yaqin qarindoshi bo'lsa yoki suhbat natijasidan bevosita manfaatdor bo'lsa yohud uning

xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa, a'zo o'zini o'zi rad etishi shart. Mazkur tartibga rioya qilmaslik tanlov natijalarini bekor qilishga asos bo'ladi.

Yuqoridagi talab bilan komissiya a'zolarining xabardorligini ta'minlash uchun ishchi organ tomonidan komissiya a'zolarining barchasidan manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yimaslik va o'zini o'zi rad etish to'g'risida tilxat olinadi.

33. Qonunchilik hujjatlarida lavozimga tayinlashda nomzodni tegishli vazirlik yoki idora bilan kelishish belgilangan lavozimlar bo'yicha Tanlov komissiyasi tarkibiga mas'ul vakili kiritilgan muassasa Ishchi organ tomonidan suhbat o'tkaziladigan kundan kamida uch ish kuni oldin xabardor qilinishi shart.

34. Suhbatning intervyu usulida har bir nomzodga soha bo'yicha bilim saviyasi, shaxsiy va kasbiy kompetensiyasi, umumiy dunyoqarashi hamda vakant lavozim uchun mosligini aniqlashga qaratilgan uchta savol (topshiriq) tasodifiy tanlash (avtomatik generatsiya) orqali beriladi. Asosiy savollardan so'ng berilgan javoblarni aniqlashtirish maqsadida ko'pi bilan beshta qo'shimcha savol berishi mumkin.

Savollar (topshiriqlar) vazirlik tomonidan ishlab chiqilib, vazirlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

35. Nomzodlarni baholash uchun har bir Tanlov komissiyasi a'zosiga Portalda shaxsiy kabinet ochiladi.

Tanlov komissiyasi a'zolari har bir nomzod shu kunning o'zida Portaldagi shaxsiy kabineti orqali onlayn tarzda nomzodlarni to'rtta yo'nalishda (bilim saviyasi, shaxsiy va kasbiy kompetensiyasi, umumiy dunyoqarashi, vakant lavozim uchun mosligi) 100 ballik tizim asosida baholaydi.

36. Suhbat yakunlari bo'yicha Tanlov komissiyasi a'zolari tomonidan nomzodga qo'yilgan ballar avtomatik ravishda umumlashtirilib, yakuniy ball hisoblanadi.

Suhbat natijasiga ko'ra eng yuqori yakuniy ball to'plagan nomzod tanlov g'olibi deb topilib, Tanlov komissiyasi bayonnomasi bilan tasdiqlanadi.

Nomzodlarning ballari teng bo'lgan taqdirda Tanlov komissiyasi raisining xulosasiga asoslanib yakuniy qaror qabul qilinadi.

Tanlov g'olibi o'z arizasiga ko'ra mehnat shartnomasini tuzishdan bosh tortgan taqdirda, Tanlov komissiyasi xulosasiga asosan hisoblangan ballga ko'ra navbatdagi o'rinni egallagan nomzod tanlov g'olibi deb topilishi mumkin.

Tanlov natijasida nomzodlar 56 balldan past bo'lgan yakuniy ball to'plagan taqdirda, tanlov g'olibi topilmagan deb hisoblanib, tanlov qaytadan e'lon qilinadi.

37. Nomzodlar tanlov komissiyasi qaroridan norozi bo'lgan taqdirda qaror qabul qilingan kundan boshlab bir oy muddatda tanlov natijalari bo'yicha komissiya qarori ustidan yuqori turuvchi organga, vazirlikka yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

38. Tanlov g'olibi aniqlangan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida tanlov g'olibi bilan mehnat shartnomasi tuziladi.

Ishchi organ tomonidan bir kunlik muddatda Tanlov komissiyasining bayonnomasi va tanlov g'olibi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi Portalga joylashtiriladi.

39. Tanlov g'olibi tomonidan tanlov o'tkazilgan lavozimga mehnat shartnomasi tuzish rad etilgan taqdirda, mehnat shartnomasi navbatdagi eng yuqori ball to'plagan nomzod bilan rasmiylashtiriladi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

40. Tanlov o'tkazish jarayonida ushbu Nizom qoidalariga rioya etmaslik holatlari aniqlangan taqdirda, vazirlik muassasaga aniqlangan qonunchilik buzilishlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish va tanlov komissiyasining qarorini bekor qilish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan ko'rsatma yuboradi.

41. Tanlov komissiyasining a'zolari hamda tanlov jarayoni ishtirokchilari tomonidan tanlov davomida nomzodlar to'g'risida olingan shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish taqiqlanadi.

42. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sog‘liqni saqlash
vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog‘liqni
saqlash boshqarmalari, tuman (shahar) tibbiyot
birlashmalari hamda viloyat darajasidagi davlat
tibbiyot va davolash-profilaktika muassasalari
ma‘muriy boshqaruv, shifokorlik hamda o‘rta
tibbiyot xodimlarining mavjud vakant
lavozimlariga tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi
NIZOMGA ILOVA

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyatlar
va Toshkent shahar sog‘liqni saqlash boshqarmalari, tuman (shahar)
tibbiyot birlashmalari hamda viloyat darajasidagi davlat tibbiyot va
davolash-profilaktika muassasalari ma‘muriy boshqaruv, shifokorlik
hamda o‘rta tibbiyot xodimlarining mavjud vakant lavozimlariga tanlov
o‘tkazish komissiyasining namunaviy
TARKIBI****

T/r	Komissiyaga a‘zosi	Lavozim nomi
1.	Komissiya raisi	Muassasa rahbari
2.	Komissiya raisi o‘rinbosari	Muassasa rahbarining yo‘nalishlar bo‘yicha o‘rinbosari
3.	Komissiya a‘zosi	Muassasa rahbarining taalluqliligi bo‘yicha o‘rinbosari
4.	Komissiya a‘zosi	Muassasa rahbarining tibbiy yordamni tashkillashtirish bo‘limi mudiri
5.	Komissiya a‘zosi	Muassasaning taalluqliligi bo‘yicha bosh mutaxassisi
6.	Komissiya a‘zosi	Muassasa bosh yurist – konsulti
7.	Komissiya kotibi	Inson resurslarini rivojlantirish bosh mutaxassisi (zaruriyatga ko‘ra boshqarmaning boshqa xodimi yoki mutaxassisi)

***Izoh:** Komissiya a‘zolari boshqa lavozimga o‘tganda yoki ishdan bo‘shatilgan taqdirda uning o‘rniga tayinlangan shaxs komissiya a‘zosi hisoblanadi.

Zarurat bo‘lgan taqdirda komissiya tarkibiga boshqa tarkibiy bo‘linmalardan mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.

**Qoraqalpogʻiston Respublikasi sogʻliqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sogʻliqni saqlash boshqarmalari, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari hamda viloyat darajasidagi davlat tibbiyot va davolash-profilaktika muassasalari maʼmuriy boshqaruv, shifokorlik hamda oʻrta tibbiyot xodimlarining mavjud vakant lavozimlariga tanlov oʻtkazish
SXEMASI**

1-bosqich	Boshqaruv samaradorligi agentligi	Muassasa “hrm.argos.uz” elektron platformasi orqali Davlat fuqarolik xizmati vakant lavozimlarining yagona portali (vacancy.argos.uz) bilan integratsiya qilinadi	Doimiy ravishda avtomatik tarzda
2-bosqich	Muassasa	“hrm.argos.uz” elektron platformasida tasdiqlangan tashkiliy tuzilmalar asosidagi maʼlumotlar shakllantiriladi va toʻldiriladi	Doimiy ravishda avtomatik tarzda
3-bosqich	Muassasa Boshqaruv samaradorligi agentligi	Vakant lavozimlarga tanlov eʼlon qilinadi (tasdiqlangan malaka talablariga asosan)	Vakant lavozim vujudga kelgandan soʻng 3 ish kunida
4-bosqich	Davlat fuqarolik xizmati vakant lavozimlari portali	Portal orqali tanlovda ishtirok etish boʻyicha nomzodlarning hujjatlarini qabul qiladi	5 kalendar kun
5-bosqich	Muassasa (Tanlov komissiyasi)	Nomzodlar hujjatlarini (malaka talablari asosida) saralaydi	Hujjatlarni qabul qilish tugagandan soʻng 3 ish kunida
6-bosqich	Muassasa	Test sinovi oʻtkaziladi (maxsus test tizimi— test.argos.uz orqali)	Hujjatlarni saralagandan soʻng 1 ish kunida
7-bosqich	Muassasa (Tanlov komissiyasi)	Nomzodlar suhbat bosqichidan oʻtkaziladi	Test sinovi oʻtkazilgandan soʻng 2 ish kunida
8-bosqich	Muassasa (rahbari)	Tanlov gʻolibi bilan mehnat shartnomasi tuziladi	Gʻolib aniqlangan kundan 1 ish kuni ichida

**Qoraqalpogʻiston Respublikasi sogʻliqni saqlash vazirligi, viloyatlar
va Toshkent shahar sogʻliqni saqlash boshqarmalarining bekor
qilinadigan buyruqlari roʻyxati**

№	Vazirlik, boshqarma nomi	Buyruq sanasi va raqami
1.	Qoraqalpogʻiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi	2025-yil 17-yanvardagi 15-son buyruq
2.	Andijon viloyati boshqarmasi	2025-yil 12-yanvardagi 62-“x”-son buyruq
3.	Buxoro viloyati boshqarmasi	2024-yil 11-noyabrdagi 198-son buyruq
4.	Jizzax viloyati boshqarmasi	2025-yil 14-yanvardagi 10-son buyruq
5.	Qashqadaryo viloyati boshqarmasi	2025-yil 13-fevraldagi 14-son buyruq
6.	Navoiy viloyati boshqarmasi	2025-yil 19-fevraldagi 47-son buyruq
7.	Namangan viloyati boshqarmasi	2025-yil 27-yanvardagi 18-son buyruq
8.	Samarqand viloyati boshqarmasi	2025-yil 17-yanvardagi 27-U-son buyruq
9.	Sirdaryo viloyati boshqarmasi	2025-yil 21-fevraldagi 01-48-son buyruq
10.	Surxondaryo viloyati boshqarmasi	2025-yil 11-yanvardagi 04-T-son buyruq
11.	Toshkent shahar boshqarmasi	2025-yil 13-maydagi 111-son buyruq
12.	Toshkent viloyati boshqarmasi	2025-yil 12-fevraldagi 01-05/48-son buyruq
13.	Fargʻona viloyati boshqarmasi	2025-yil 6-fevraldagi 44-son buyruq
14.	Xorazm viloyati boshqarmasi	2025-yil 5-fevraldagi 38-son buyruq